



Soqiyev Bahriddin Bahovaddinzoda

O'zbekiston Milliy Universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, uning ijtimoiy xavfliligi hamda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan islohotlar yoritilgan. Maqolada korrupsiyaga qarshi siyosatning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Korruptsiya, qonun ustuvorligi, halollik, adolat, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Konstitutsiya, davlat siyosati, fuqarolik jamiyati, shaffoflik.

FIGHTING INTERNATIONAL CORRUPTION.

Abstract: This article discusses the concept of corruption, its social danger, and the reforms being carried out in the field of combating corruption in the Republic of Uzbekistan. The article analyzes the constitutional and legal foundations of anti-corruption policy, priority areas of state policy, as well as the role of civil society.

Keywords: Corruption, rule of law, honesty, justice, Anti-Corruption Agency, Constitution, state policy, civil society, transparency.

БОРЬБА С МЕЖДУНАРОДНОЙ КОРРУПЦИЕЙ.

Аннотация: В статье рассматриваются понятие коррупции, её социальная опасность, а также реформы, проводимые в сфере противодействия коррупции в Республике Узбекистан. Анализируются конституционно-правовые основы антикоррупционной политики, приоритетные направления государственной политики, а также роль гражданского общества.

Ключевые слова: Коррупция, верховенство закона, честность, справедливость, Агентство по борьбе с коррупцией, Конституция, государственная политика, гражданское общество, прозрачность.

KIRISH

Korrupsiya — har qanday davlat va jamiyat hayotiga jiddiy xavf tug'diruvchi illatdir. U fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, iqtisodiy barqarorlikka va ijtimoiy adolatga zarar yetkazadi. Shu bois, har yili 9-dekabr kuni butun dunyoda "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" sifatida nishonlanadi. Mazkur sana Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi" asosida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi 2008-yilda ushbu xalqaro hujjatga qo'shilgan bo'lib, bu mamlakatimizning global miqyosda korrupsiyaga qarshi kurashdagi qat'iy pozitsiyasini ko'rsatadi. Bundan tashqari korrupsiya har bir



jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini izdan chiqaruvchi eng xavfli jinoyatdir. Hech bir mamlakat, biror bir hudud yoki jamiyat yo'qki, u korrupsiyaga qarshi immunitetga ega bo'lsa. Birlashgan Millatlar Tashkilotida barcha davlatlar hamkorlikda ta'lim, tibbiyot, sud-huquq va demokratiyaning rivojlanishiga korrupsiyaning kirib borishiga asosiy e'tiborini qaratadigan tadbir ishlab chiqilgan. Xalqaro tadbir o'z e'tiborini korrupsiyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta to'siq bo'lishiga qaratadi. Shu munosabat bilan 2003-yil 9-dekabr kuni Meksikada BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolangan va ushbu kun Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida e'lon qilingan.

Shu tariqa, 2004-yil 9-dekabr kunidan boshlab Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaga qarshi kurashish – bu nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, balki jamiyatimizning hayot falsafasiga aylanishi kerak." Ushbu yondashuv korrupsiyani faqat jazolash orqali emas, balki uning ildizini yo'qotish, profilaktika, ma'naviy tarbiya va halollik madaniyatini shakllantirish orqali bartaraf etish zarurligini ifodalaydi. Bugungi kunda O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Yevropa Ittifoqi, OSCE va Transparency International bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Davlat boshqaruvida ochiqlik, elektron hukumat tizimi, davlat xaridlarida shaffoflik va ommaviy axborot vositalari ishtiroki korrupsiyaga qarshi siyosatning ajralmas tarkibiy qismlariga aylanib bormoqda. Korrupsiyaning asosiy belgilarini:

1. Shaxsiy manfaatdorlik — mansabdor yoki xizmatdagi shaxs o'z vakolatidan shaxsiy foyda (pul, sovg'a, xizmat, imtiyoz) olish uchun foydalanadi.
2. Xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish — o'z lavozimini qonunga zid ravishda ishlatish, masalan, qarorlar qabul qilishda tanish-bilishchilik yoki adolatsizlik.
3. Pora olish va pora berish — eng keng tarqalgan ko'rinish bo'lib, xizmat yoki qaror uchun moddiy yoki nomoddiy mukofot olish.
4. Nepotizm va favoritizm — qarindosh, do'st yoki tanishlarni lavozimga tayinlash, ularga imtiyoz yaratish.
5. Davlat yoki jamoat mulkini talon-taroj qilish — davlat mablag'larini, resurslarini o'zlashtirish yoki noto'g'ri sarflash
6. Qonunga zid shartnomalar tuzish — manfaatdorlik asosida tender, shartnoma yoki bitimlarni noqonuniy tarzda berish.
7. Shaffoflik va hisobdorlikning yo'qligi — qarorlar, moliyaviy hisobotlar va jarayonlarning yopiq, nazoratsiz amalga oshirilishi.
8. Nohaq boyish (noqonuniy daromad) — shaxsning daromadi uning rasmiy maoshidan ancha yuqori bo'lishi, ammo manbasi asoslanmagan bo'lishi.
9. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ta'sir o'tkazish — jinoyatni yashirish yoki tergovni to'xtatish maqsadida ta'sir o'tkazish.
10. Ijtimoiy adolat va ishonchning buzilishi — korrupsiya oqibatida fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi pasayadi.

Asosiy qism

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning konstitutsiyaviy asoslari:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi korrupsiyaga qarshi siyosatning poydevorini belgilaydi.



2-modda – davlat xalq irodasini ifoda etadi, barcha davlat organlari xalq manfaatlariga xizmat qiladi;

15-modda – qonun ustuvorligi prinsipi;

44-modda – fuqarolarning o'z huquqlarini davlat organlarida himoya qilish huquqini kafolatlaydi.

Mazkur moddalarning barchasi davlat boshqaruvida halollik, javobgarlik va ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan.

2. O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi siyosati

2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning asosiy mexanizmlarini belgiladi.

Unga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

qonun ustuvorligi;

davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;

jamoatchilik nazorati;

shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish. 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Prezident Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. U korrupsiyani aniqlash, profilaktika choralarini amalga oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bilan shug'ullanadi.

Shuningdek, 2021-yil 30-noyabrdagi 704-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori bilan davlat xizmatchilari uchun odob-axloq qoidalari belgilandi. Bu hujjat davlat xizmatchilarining halollik va mas'uliyat bilan faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari

1. Davlat organlari faoliyatida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash;

2. Elektron hukumat tizimini kengaytirish orqali inson omilini kamaytirish;

3. Korrupsiyaga qarshi ta'lim va madaniyatni shakllantirish;

4. Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

5. Yoshlarni halollik ruhida tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

4. Fuqarolik jamiyatining o'rni

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlarining emas, balki butun jamiyatning vazifasidir.

Yoshlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlari bu borada muhim rol o'ynaydi.

Har bir fuqaroning halol mehnati va adolatparvarligi jamiyatda halollik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Korrupsiya — jamiyat taraqqiyotining dushmani, halollik esa uning tayanchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy, institutsional va ma'naviy asoslarni shakllantirdi.



Har bir fuqaro halollik tamoyillariga amal qilgan holda bu yo'ldagi umumxalq harakatiga o'z hissasini qo'shmog'i zarur.

Shunda Yangi O'zbekiston korrupsiyasiz, adolatli va shaffof davlat sifatida mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Halollik – taraqqiyotning poydevori" mavzusidagi chiqishlari.
2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy sayti: <https://www.anticorruption.uz>
4. Xalqaro ekspertlar markazi. Korrupsiyaga qarshi siyosat va halollik tamoyillari. – Toshkent, 2022.
Normativ-huquqiy hujjatlar.
 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023-yil.
 2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun. – O'RQ-419, 2017-yil 3-yanvar.
 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6013-son Farmoni. – "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish to'g'risida", 2020-yil 29-iyun.
 4. Vazirlar Mahkamasining 704-son qarori. – "Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari to'g'risida", 2021-yil 30-noyabr.
 5. BMTning "Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi". – Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr.